



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 21-yanvar

22-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 901-son qarori ijrosi haqida”gi 17-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari, xo‘jaliklararo avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va saqlash ishlarining turlari hamda tarkibini belgilash, pudrat ishlarini hajm uslubida amalga oshirishni joriy etish, tabiiy ofat va texnogen holatlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf qilish ishlarini tashkil etish tartibini belgilash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 901-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvar da 17-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 901-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 17-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

yo‘l ho‘jaligi sohasida loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, yo‘l qurilishi ishlarini amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilib olishda hajm va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish (hajm uslubi) tartibi to‘g‘risidagi nizom 1- ilovaga muvofiq;

avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash ishlari tasnifi 2- ilovaga muvofiq;

avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari tugallangan ob‘ektlarning asosiy konstruktiv elementlari hamda yo‘l harakatini tashkil etish texnik vositalariga kafolatli xizmat qilish muddatlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom 3- ilovaga muvofiq;

avtomobil yo‘llaridagi tabiiy ofat va texnogen xususiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf qilish ishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi) har yili 1-martdan kechiktirmay Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda, ajratilgan limitlar doirasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining har yilgi ta‘mirlash va saqlash xarajatlari smetalari shakillantirilishini va tasdiqlanishini ta‘minlashi;

Belgilab qo‘yilishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda:

a) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlari bo‘yicha:

ta‘mirlash ishlari - ajratilgan limitlar doirasida qiymati bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravariga bo‘lgan ob‘ektlar harajatlar smetasi asosida hamda olti ming barovaridan yuqori bo‘lgan ob‘ektlar belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va ekspertizadan o‘tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari bo‘yicha shakillantirilgan manzilli ro‘yhatlar asosida moliyalashtirilishi;

Ushbu ishlar Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi yo‘l va ko‘priklarni saqlash hamda ta‘mirlash tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda- ekspluatatsiya tashkilotlari) tomonidan amalga oshirilishi;

Bunda, qiymati bazaviy xisoblash miqdorining olti ming baravaridan yuqori bo‘lgan ob‘ektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha bosh loyiha tashkilotlari belgilangan tartibda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq aniqlanishi;

saqlash ishlari – ajratilgan limitlar doirasida belgilangan tartibda kelishilgan va tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida moliyalashtiriladi hamda ekspluatatsiya tashkilotlari tomonidan oshirilishi;

b) shahar va boshqa aholi punkti ko‘chalari, xo‘jaliklararo avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirilishi;

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda buyurtmachi tashkilotlarning takliflariga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash va saqlash ishlariga ajratilgan mablag‘lar to‘liq o‘zlashtirilishini ta‘minlash maqsadida yil davomida ajratilgan limitlarni hududlar va ish turlari bo‘yicha qayta taqsimlashga ruxsat etilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi, tuman iqtisodiyot va molyai bo‘limi (Z.Jo‘raboyev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Hudoyberdiyev) hamda boshqa manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 901-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov